

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova	
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari.....	104
Sh.T.Abbosova	
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili	108
U.K.Mamayusupov	
Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati	110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	113
L.S.Yuldasheva	
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil.....	119
B.N.Eshbekov	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikasiya transformatsiyasi	123
A.X.Borotov	
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba	127
J.M.Azamov	
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitusiyaviy qonunchilikning rivojlanish marralari.....	132
M.Kenjayeve	
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni	137
A.A.Ahrorqulov	
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni	141

TARIX

O.V.Mahmudov	
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari.....	145
T.T.Safarov	
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....	154
B.X.Abdullayev	
Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvidagi ilmiy izlanishlari.....	158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev	
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia	162
Z.Sh.Turg'unboyev	
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif	166
G.X.Xasanboyeva	
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....	171
A.Sharafiddinov	
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi	174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov	
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi.....	179



UO'K: 930.85:001(4–11) (=411.21=111)

MUSULMON SHARQI MUTAFAKKIRLARI ASARLARINING YEVRUPAGA TARQALISH BOSQICHLARI VA GEOGRAFIK YO'NALISHLARI

II bosqich:	¹ Ray → Isfahan → Bag'dod → Damashq → Qohira → Fustot → Iskandariya → Qayruvon → Qurtuba → Toledo
	² Qurtuba → Toledo
III bosqich:	¹ Toledo → Pamplona → Saragossa → Marsel → Palermo
	² Toledo → Oksford → Norwich

STAGES AND GEOGRAPHICAL ROUTES OF THE DISSEMINATION OF THE WORKS OF MUSLIM EASTERN THINKERS IN EUROPE

Stage II:	¹ Ray → Isfahan → Baghdad → Damascus → Cairo → Fustat → Alexandria → Kairouan → Cordoba → Toledo
	² Cordoba → Toledo
Stage III:	¹ Toledo → Pamplona → Saragossa → Marseille → Palermo
	² Toledo → Oxford → Norwich

ЭТАПЫ И ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ МАРШРУТЫ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ТРУДОВ МЫСЛИТЕЛЕЙ МУСУЛЬМАНСКОГО ВОСТОКА В ЕВРОПЕ

II этап:	¹ Рей → Исфахан → Багдад → Дамаск → Каир → Фустат → Александрия → Кайруан → Кордова → Толедо
	² Кордова → Толедо
III этап:	¹ Толедо → Памплона → Сарагоса → Марсель → Палермо
	² Толедо → Оксфорд → Норвич

Mahmudov Otabek Valijonovich 

Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası dotsenti, PhD.

Annotatsiya

Maqolada fan tarixida hozirga qadar deyarli e'tibor qaratilmagan masala – musulmon Sharqi olimlari asarlarining o'rta asrlarda Yevropa bo'ylab tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlarini aniqlash borasida olib borilgan maxsus ilmiy tadqiqotning navbatdagi natijalari bayon qilingan. Arab va lotin tilli manbalarining tahlil natijalari Markaziy Osiyo olimlari asarlarini X – XIII asrlarda Yevropaga asosan 2 ta geografik yo'nalish orqali kirib borganligidan dalolat bermoqda. Bular, tranzit nuqtasi al-Andalus bo'lgan janubi-g'arbiy yo'nalish hamda markazi Sitsiliya bo'lgan janubi-sharqiy yo'nalishdir. Muallif asosiy e'tiborni birinchi yo'nalish, al-Andalusga qaratib, ayni mintaqada arab tilidagi asarlarni jamlanishi va Yevropaning ichki hududlari bo'ylab tarqalishini 3 bosqichda (X, XI asr ikkinchi yarmi, XII – XIII asrlar) kechgan, degan xulosaga kelgan. Maqolada janubi-g'arbiy, ya'ni al-Andalus yo'nalishining II va III bosqichlari tahlil etilgan.

Abstract

The article presents the next results of a specialized scientific study devoted to an issue that has so far received little attention in the history of science – the identification of the stages and geographical routes through which the works of Muslim Eastern scholars spread across medieval Europe. Analysis of Arabic and Latin-language sources suggests that between the 10th and 13th centuries, the works of Central Asian scholars entered Europe primarily via two major geographical routes. These include a southwestern route with al-Andalus as the transit hub, and a southeastern route centered around Sicily. The author focuses mainly on the first route, al-Andalus, and concludes that the circulation of Arabic-language works across inland Europe followed three stages: the 10th century, the second half of the 11th century, and the 12th–13th centuries. The article examines the second and third stages of the southwestern, that is, the al-Andalus route of the dissemination of the works of Muslim Eastern scholars.

Аннотация

В статье изложены очередные результаты специального научного исследования, посвященного одной из тем, до настоящего времени практически не получивших должного внимания в истории науки, – определению этапов и географических направлений распространения трудов учёных мусульманского Востока

по территории средневековой Европы. Анализ арабоязычных и латинских источников показывает, что в X–XIII веках труды центральноазиатских учёных проникали в Европу преимущественно по двум основным географическим направлениям. Первое направление – юго-западное, с транзитным узлом в аль-Андалусе; второе – юго-восточное, с центром на Сицилии. Автор сосредотачивает внимание на первом, андалусском направлении, приходя к выводу, что распространение арабоязычных трудов внутри Европы происходило в три этапа: в X веке, во второй половине XI века и в XII–XIII веках. В статье рассматриваются второй и третий этапы юго-западного направления, то есть андалусского маршрута распространения трудов учёных мусульманского Востока.

Kalit so'zlar: Ray, al-Andalus, Qurtuba, Toledo, Oksford, Palermo, arab tili, lotin tili, asarlar, manbalar, tarqalish, geografik yo'nalish, bosqich, tarjima.

Key words: Ray, al-Andalus, Cordoba, Toledo, Oxford, Palermo, Arabic language, Latin language, works, sources, dissemination, geographical route, stage, translation.

Ключевые слова: Рей, аль-Андалус, Кордова, Толедо, Оксфорд, Палермо, арабский язык, латынь, труды, источники, распространение, географическое направление, этап, перевод.

KIRISH

Biz, “Sharqshunoslik” ilmiy jurnalining 2025-yil 3-sonida chop etilgan maqolamizda [23] musulmon Sharqi, aniqrog'i Birinchi Renessans davri allomalari asarlarining o'rta asrlarda Yevropa bo'ylab tarqalish yo'nalishlari va bosqichlarini aniqlashga harakat qilib, bu boradagi dastlabki xulosalarimizni e'lon qildik. Mavzuga oid arab va lotin tilli manbalarining qiyosiy tahlil natijasi shuki, IX – XII asrlarda ijod qilgan musulmon Sharqi, shu jumladan Markaziy Osiyo olimlarining arabcha asarlari X – XIII asrlarda Yevropaga asosan 2 ta geografik yo'nalish orqali tarqalgan. Bular, tranzit nuqtasi al-Andalus bo'lgan janubi-g'arbiy yo'nalish hamda markazi Sitsiliya bo'lgan janubi-sharqiy yo'nalishdir. Ayni davrda arab tilidagi asarlarning mintaqaga kirib kelishi uchinchi geografik yo'nalish bo'lmish shimoli-sharqiy taraf – Konstantinopol orqali ham yuz bergan bo'lsa-da, ular juda kam miqdorni tashkil etgan. Bu yo'nalishda arab va boshqa sharq tillaridagi asarlarning Yevropaga olib o'tilishi shaharni Usmoniylar tomonida egallangan 1453-yildan so'ng, ya'ni XV asr ikkinchi yarmidan kuchayib, Istanbul – Sharq va G'arb ilmiy aloqalarida eng asosiy o'tish punktiga aylangan. Misol uchun, Ikkinchi Renessans davri olimlari, jumladan Mirzo Ulug'bek va uning akademiyasida ijod qilgan allomalarning ko'p sonli asarlari aynan shu davrda Istanbul orqali Yevropaga kirib borgan [23: 73].

Ta'kidlanganidek, birinchi geografik yo'nalish markazi – Pireney yarim orolining ma'lum muddat musulmonlar hukmronligi ostida bo'lgan al-Andalus hisoblanadi. Mazkur mintaqada arab tilidagi asarlarni jamlanishi va Yevropaning ichki hududlari bo'ylab tarqalishini 3 bosqichga kechdi. Ulardan, I bosqich – X asr, II bosqich – XI asr ikkinchi yarmi, III bosqich – XII – XIII asrlarni o'z ichiga oladi. “Sharqshunoslik” ilmiy jurnalida chop etilgan maqolada mazkur bosqichlardan birinchisi atroflicha tahlil etilib, ayni davrdagi jarayonlar muayyan darajada tahlil etildi [23]. Mazkur maqolada esa birinchi, ya'ni janubi-g'arbiy yo'nalishning II va III bosqichlari yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirga qadar o'rta asr musulmon madaniyati va fanining Yevropaga ko'rsatgan ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu kabi tadqiqotlar ichida R.Dozi (1820–1883), F.Kodera-Zaydin (1836–1917), A.Myuller (1848–1892), I.Krakovskiy (1883–1951), E.Levi-Provansal (1894–1956), U.M.Uott (1909–2006) asarlarida [19 – 22; 25 – 30] masala mohiyatining ayrim jihatlarini yoritilgan bo'lsada, ular arab tilidagi ilmiy merosni Yevropaga qanday kirib borganligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

Ammo mavzuga oid bir qator arab va lotin tilli manbalar mavjudki, ularda musulmon Sharqi olimlari asarlarining o'rta asrlarda Yevropa bo'ylab tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlarini aniqlashga yordam beruvchi muhim qaydlar uchraydi. Ulardan dastlabkisi Ibn Bashkuvol (1101–1183)ning «as-Sila fi tarix a'immat al-Andalus» («al-Andalus ilmiy tarixining davomi») [15] nomli asari bo'lib, unda XI va XII asrning 80-yillariga qadar ijod qilgan andalusiyalik allomalar to'g'risidagi ma'lumotlar bir qatorda arab tilidagi asarlarni al-Andalusda jamlanishiga doir muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Navbatdagi manba Ispaniyaning Mursiya shahrida ijod qilgan musulmon biografi Abu Jafar al-Dabbiy (vaf. 1202)ning «Bugat al-multamis fi tarix rijol ahl al-Andalus» («Al-Andalusiyaning biografik qomusi») [14] nomli asari bo'lib, unda Pireney yarim olining musulmonlar tomonidan bosib olingan VIII asr boshlaridan to hijriy 592-yil, ya'ni milodiy 1196-yilga qadar bo'lgan davrda al-Andalusda istiqomat qilgan olimlar, mashhur shaxslar, zodagon va din arboblari to'g'risida biografik

TARIX

ma'lumotlar berilgan. Umumiy hisobda besh yuz nafardan ortiq shaxs to'g'risida xabar beruvchi asarda ham tadqiq etilayotgan masala doirasida ayrim qaydlar mavjud.

Mavzuga oid arab tilidagi manbalarning navbatdagi Valensiyada ijod qilgan Ibn Abbor (1199–1260)ning «Kitob al-Takmila li kitob al-sila» («as-Sila kitobiga qo'shimchalar») [6] nomli asaridir. U yuqorida tilga olingan Ibn Bashkuvolning «as-Sila fi tarix a'immat al-Andalus» kitobini takomillashtirilgan varianti hisoblanadi. Asar o'z hajmiga ko'ra ancha yirik biobibliografik qomus bo'lib, unda umumiy hisobda uch ming nafarga yaqin olim va shoirlar to'g'risida ma'lumotlar alifbo ketma-ketligida keltirilgan.

Yuqoridagilardan tashqari, mavzi doirasida lotin tilidagi manbalar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ulardan o'rta asr Ispaniya arabshunoslik tarjima markazlari tarixiga oid birlamchi manbalar hisoblanuvchi Pyer de Montboissier (1094–1156)ning «Summa totius haeresis Saracenorum» [16] («Musulmonlarning tartib qoidalari»), Rodrigo Ximenes de Rada (1170–1247)ning «De rebus Hispaniae» [17] («Ispaniya bo'yicha savollar») va «Historia arabum» [18] («Arablar tarixi») nomli asarlari, shuningdek, Alfonso X (1252–1284) muallifligi ostida eski ispan tilida yozilgan «Crónica General de España» [8 – 13] («Ispaniya tarixining umumiy solnomasi») nomli asarlar muhim ahamiyatga ega. Biz yuqoridagi manbalarni o'zimizning avvalgi ishimizda o'zaro qiyosiy tahlil qilib, bu boradi xulosalarimizni [23] e'lon qilganmiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Musulmon Sharqi allomalari asarlarining o'rta asrlarda Yevropa bo'ylab tarqalishini al-Andalus yo'nalishining **ikkinchi bosqichi** XI asrning ikkinchi yarmini o'z ichiga oladi. Bu bosqich Toledo amiri al-Ma'mun (1043–1075) hamda Leon va Kastiliya qiroli Alfonso VI (1069–1109) faoliyati bilan bog'liq bo'lib, arab tilidagi asarlar keltirilgan eng sharqiy hudud chegarasi Xurosonga qadar etgani hamda Qurtubada jamlangan asarlarni Toledoga ko'chirib o'tkazilishi bilan xarakterlanadi.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, ichki nizolar sabab 1031-yilga kelib Qurtuba xalifaligini o'ttizga yaqin mayda amirlik, ya'ni «muluk at-tavoif»larga bo'linib ketgan. Shunday bo'lsada, hududda ilm-fan rivoji to'xtab qolmadi. Bu davrda, alohida mustaqil davlat hisoblangan Toledo amirligi amiri al-Ma'mun faoliyati alohida e'tiborga loyiq bo'lib, uning davrida yaratilgan arab tilidagi meros XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrdagi tarjimachilik tadqiqotlarining asosiy obyektlaridan biriga aylangan.

Saroyidan turli soha olimlariga joy berib, ularga ilm-fan bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratgan va rahnamolik qilgan amir davrida fanning turli sohalarida izlanishlar olib borilib, yangi kashfiyot va ixtirolar yaratildi. Toledo amirligi saroy kutubxonasida ham huddi Qurtubada Abdurahmon III (912–962) va al-Hakam II (962–976) davrida bo'lgani kabi turli tillardagi qo'lyozma asarlarni saqlash, ularni arab tiliga tarjima qilish va tadqiq etish ishlari yo'lga qo'yilgan edi. Natijada Toledo al-Andalusda ilmiy faoliyat yuritish uchun qulay shaharga aylanadi. Bu o'z navbatida turli shahar va mamlakatlardagi olimlarning o'sha erda ijod qilish ishtiyoqini oshishiga sabab bo'ldi. Ibn Bashkuvolning «as-Sila fa tarix a'immat al-Andalus» asarida al-Ma'mun saroyida Pireney yarim orolining har-xil nuqtalaridan kelgan turli diniy e'tiqoddagi tabiblar, astronomlar, matematiklar, kimyogarlar, geograflar va muhandislar xizmat qilganligi [15: 52] aytiladi.

Yahyo al-Ma'mun saroyida samarali ijod qilgan allomalardan biri bu Ali ibn al-Husayn ibn al-Vofid (997–1074) bo'lib, u farmakologiyaning fan sifatida shakllanishga katta hissa qo'shgan dorishunos va biolog olim hisoblanadi. Ibn Bashkuvol olimni amirning vaziri va shu bilan birga Toledo amirligining bosh tabibi sifatida faoliyat yuritganligi qayd etadi. Ibn al-Vofid uzoq yillik ilmiy tadqiqotlari natijasi asosida «Kitob al-adviya al-mufroda» («Oddiy dori-darmonlar kitobi») nomli asar yozgan. Ammo, Ibn Abbor o'z asarida olim haqida fikr yuritganda, uni bemorlarni dorilar bilan davolashni unchalik ham xush ko'rmaganligi, shu boisdan kasallarni ko'p hollarda maxsus parhezlar bilan davolagani, turli dori vositalaridan faqat so'nggi chora sifatida foydalanganligini [6: 67] aytadi.

Ibn al-Vofid tomonidan tibbiyotga doir yana bir qancha asarlar yozilgan bo'lib, ulardan «Mujarabat fi-t-tibb» («Tib bo'yicha tajriba»), «Tadqiq al-nazar fi 'ilal hassat al-basar» («Ko'z kasalliklarini davolash bo'yicha kuzatishlar»), «Kitob ar-Rashad fi-t-tibb» («Tib bo'yicha qo'llanma») kabi risolalar muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, allomaning asl arabcha matni saqlanmagan, bugungi kunga qadar faqat lotincha tarjimalari orqali etib kelgan «De balneis sermo» («Balchiq yordamida davolash») nomli asari ham fan tarixida mashhur bo'lib, u tibbiyotning shifobaxsh suvlar hamda loy-balchiqlar yordamida davolash bilan shug'ullanuvchi bo'limi – balneologiyaga bag'ishlangan.

Ibn Bashkuvolga asoslanadigan bo'lsak, Ibn al-Vofid tomonidan tibga oid bir qancha asarlar yunon tilidan arab tiliga tarjima qilingan [15: 69] bo'lib, ular qatoriga Gippokrat (mil. avv. 460 – taxm. 370)ning «Ο αἶρας, νερό και το ἔδαφος» [Ο αἶρας, нэрó кай то ἔδαφος] («Havo, suv va er») hamda Galen (taxm. 129–200)ning «Από τη γνώση του παλμού» [Από τῆ γνώσῃ τυ пальмύ] («Tomir urushi haqida bilimlar») nomli asarlarini kiradi.

Ibn Abborning bergan ma'lumotlariga ko'ra, olim al-Ma'munning topshirig'i bilan amir saroyida dorivor o't va o'simliklardan iborat maxsus bog' yaratadi [6: 89]. Al-Vofid bog'da eng noyob o'simliklar o'stirish bilan birga, bu erda o'simliklarning kelib chiqishi, ularning dorivorlik xususiyatlari va ahamiyatini o'rganish bo'yicha tajribalar olib borgan va hatto o'z shogirdlariga dars ham o'tgan. Ibn Bashkuvol saroy bog'idagi maktabda tahsil olganlar ichida Ibn Bassal, Ibn Volif va Ali Ibn al-Lukux ismli shaxslarni sanab o'tadi [15: 70]. Ulardan Muhammad ibn Ibrohim ibn Bassal (XI asr) o'z davrining eng etuk agronomi, muhandis va botanik olimi bo'lib etishadi. Ibn Bassal amir al-Ma'mun tashabbusi va homiyligida boshqa mintaqalarning o'simliklar dunyosi, ularning dorivor vakillari hamda iqlim xususiyatlarining tuproq tarkibiga ta'sirini o'rganish maqsadida Sitsiliya, Misr, Arabiston yarim oroliga ilmiy sayohat uyushtiradi. Olim hatto Xuroson hududiga ham kelgan [15: 71]. «Kitob al-Takmila li kitob al-sila»da *Ibn Bassal o'zi sayohat qilgan hududlardan yigirmaga yaqin arab tilidagi asarlarni Toledoga keltirgani va ularni amirga sovg'a qilgan* [6: 53]ligi qayd etilgan. Ayni ma'lumot, quyida tahlil etiluvchi «Taboqat al-Umam» («Xalq tasnifi») nomli asarda ham aks etgan bo'lib, qiziq bir voqelik bilan to'ldirilgan. Jumladan, manbada *Ibn Bassal sayohatdan olib kelingan asarlarni amirga sovg'a qilish chog'ida, ularning ichidagi isfahonlik Shayx ur-raisa taalluqlilarini o'zida olib qolgan* [7: 43]ligini aytiladi. Ayni ma'lumot, o'z zamonidan Shayx ur-raisa deb sharaflangan Ibn Sino asarlarining nusxalari XI asrda Toledoga etib borganligidan dalolat beradi. Manbada Ibn Sinoni isfahonlik sifatida ko'rsatilishiga olim o'z umrining so'nggi o'n to'rt yili (1023–1037) mazkur shaharda o'tkazganligi sabab bo'lishi mumkin.

Ibn Bassal o'z sayohati davomida to'plagan ma'lumotlari asosida «Divin al-Filaha» nomli asar yozadi. Asar juda katta hajmga ega bo'lganligi bois, al-Ma'mun uni qisqartirib, faqat zaruriy ma'lumotlarnigina qoldirishni buyuradi. Asarning ixchamlashtirilgan varianti «Kitob al-kasd val bayon» («Aniqlik va ravshanlik kitobi») nomini oladi. U o'rta asrlarda Yevropada agronomiyaga oid eng mukammal manba sifatida keng tarqalgan.

Shuningdek, al-Ma'mun saroyida faoliyat yuritgan botanik olimlar qatorida Ibn Volif hamda al-Lukuxni ko'rish mumkin. Ular ham o'z davrining eng etuk mutaxassislari sirasiga kirishgan. Ibn Bashkuvol amir tashabbusi bilan bunyod etilgan sakkizta bog'ning yaratilishida Ibn Volifni bevosita rahbarlik qilganligini, al-Lukuxni esa «Umdat at-tabib fi ma'rifat an-nabat li kulli Labib» nomli botanikaga oid katta lug'at tuzganligi [15: 89] ta'kidlaydi. Biroq, muallif ularning hayoti va ijodiga oid boshqa ma'lumotlarni qayd etmaydi.

Ayni davrda Toledoda rivoj topgan ilmlardan yana biri astronomiya edi. Ushbu fan ravnaqiga hissa qo'shgan toledolik olimlar ro'yxati shubhasiz Abu Ishoq Ibrohim ibn Yahyo an-Naqqosh az-Zarqaliy (1029–1087) ismi bilan boshlanadi. Ibn Abborga ko'ra, asli millati yahudiy bo'lgan az-Zarqaliy dastlab astronomik asboblarni yasash bilan shug'ullangan [6: 235]. Jarayonda o'zi ham etuk astronom bo'lib etishadi. Olimning ilk asari «Kitob al-'amal bi-s-safiha az-zijiyya» («Timpan turidagi zijlarda ishlash kitobi») nomli risoladir. Unda osmon sferasini stereografik tarzda tasvirlashda olim o'zi yasagan yangi turdagi asturlobni qo'llash usullari to'g'risidagi ma'lumotlar beradi. Bu asturlob o'rta asrlarda Yevropada «saphaea Arzachelis» («az-Zarqaliy asbobi») nomi bilan mashhur bo'lgan. Az-Zarqaliy uzoq yillar davomida Toledoda olib borgan astronomik kuzatishlari natijasida maxsus zij tuzadi. «Zij at-Tulaytilo» («Toledo ziji») nomli ushbu astronomik jadvallar to' XIII asrning II yarmiga qadar Yevropada yaratilgan zijlarga asos bo'lib xizmat qilgan. Muhim jihati shuki, olim o'z asarida nazariy ma'lumotlarning asosiy qismini Muhammad al-Xorazmiyning «Zij»idan tasarruf etgan [1, 2].

Ibn Abbor asarida qayd etilishicha, 1070-yilda az-Zarqaliy amir al-Ma'mun topshirig'i bilan o'z uyida suv soati yasagan [6: 87]. Mazkur soat Taxo daryosi suvidan to'ldiriluvchi ikkita hovuzdan iborat bo'lib, ulardagi suv miqdori Oy fazasiga qarab ko'tarilgan yoki aksincha pasaygan. Shunga qarab, Oy kalendari bo'yicha vaqtni aniqlash mumkin bo'lgan. Biroq, az-Zarqaliy yasagan suv soati 1133-yilgacha xizmat qilgan xolos. Chunki, shu yili hayotiga oid ma'lumotlar saqlanmagan Ibn Zabare ismli yahudiy muhandis soatni qanday qurilganligini o'rganish maqsadida qismlarga ajratadi, ammo keyin uni qayta tiklay olmaydi [6: 88].

Az-Zarqaliygacha Toledoda ijod qilgan astronomlardan Muhammad ibn Assafor ismi ham fan tarixida ma'lum, lekin uning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar juda kam saqlangan. Ibn Bashkuvol

TARIX

olimni 1029-yilda astronomik kuzatishlar uchun asturlob yasaganligi [15: 164] qayd etadi, xolos. Ushbu asturlob hozirgi kunda Germaniyaning Marburg shahridagi Vestbud kutubxonasi muzeyida saqlanadi.

Bu davrda Toledoda tarix fani ham ravnaq topgan. Avvalroq soʻz yuritilgan «Taboqat al-Umam» («Xalq tasnifi») nomli asar ayni sohada yaratilgan eng muhim kitoblardan biri boʻlib, uning muallifi Saʼid al-Andalusi (1029–1070) hisoblanadi. 1068-yilda yozib tugallangan asarda turli xalqlarining falakiyot, hisob va tib ilmlari hamda falsafa rivojiga qoʻshgan hissasiga oid qimmatli maʼlumotlar keltirilgan. Asar oʻz tuzilishiga koʻra bio-bibliografik fixrist hisoblanib, unda oʻsha davrda mavjud boʻlgan xalqlar va ilmlar tasniflashga harakat qilingan. Asarning ikkinchi boʻlimi bevosita musulmon allomalariga bagʻishlangan boʻlib, asosan falakiyot, handasa, riyoziyot, mantiq va falsafa fanlari doirasida yozilgan asarlar tahlil etilgan. Asarda da al-Vaqqodiy, at-Tugʻibiy, Ibn al-Attar, Ibn Hamis, Ibn al-Bagnus kabi shaxslarning ham ismlari qayd etilgan boʻlib, ular XI asrda Toledoda faoliyat yuritgan matematik va astronom olimlar, deb koʻrsatiladi. Qayd etish joizki, mazkur allomalarning ilmiy faoliyati bugungi kunga qadar maxsus oʻrganilmay qolmoqda. Muhim jihati, al-Andalusi oʻz asarida yuqoridagi 5 nafar olimni amir topshirigʻi asosan kitob yigʻish maqsadida 1069–1071-yillar oraligʻida Ifriqiyadagi Qayruvon shahri orqali Iskandariya, Fustot, Qohira, Damashq, Bagʻdod, Isfahon va Ray shaharlariga ikki yillik safar qilganliklari taʼkidlaydi. «Taboqat al-Umam»da olimlar tomonidan Toledoga olib kelingan asarlarga ishora qilinib, «Ahkom fi ʼilm an-nujum», «Kitob fi suvar al-kavokib as-sabita», «Kitob al-ahjor», «Kitob al-hovi fi-t-tib», «Kitob sirr al-asror», «Kitob fi xayʼa al-ʼalam», «Risola fi ʼuyun al-masoil» kabilar sanab [7: 123-124] oʻtilgan. Biroq, manbada asarlarning mualliflari toʻgʻrisidagi izohlar uchramaydi. Ularning nomlarini tahlili esa asarlar musulmon Sharqining mashhur allomalari Jobir ibn Hayyon (721–815), Sahl ibn Bishr (786–845), Abu Bakr ar-Roziy (865–925), Abu Nasr Forobiy (873–950), Abdurahmon as-Soʻfiy (903–986), Ibn al-Haysam (965–1040) qalamiga mansub kitoblar boʻlganligidan dalolat bermoqda.

Keltirilgan maʼlumotlar al-Maʼmun hukmronlik qilgan yillarda Toledoda aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlar birdek ravnaq topganligidan koʻrsatmoqda. Aytish kerakki, bu davrda yaratilgan ilmiy meros keyinchalik Toledo maktabi va unga yondosh boshqa tarjima markazlarining shakllanishida va u erda ijod qilgan olimlarning izlanishlarida «mahalliy manba» boʻlib xizmat qilgan. Bundan tashqari, ayni vaqtda Qurtuba xalifalari Abdurahmon III va al-Hakam II davrida boʻlgani kabi qadimgi davr olimlari asarlari arab tiliga tarjima qilingan hamda Mashriq mamlakatlaridan turli fan sohalariga oid arab tilidagi asarlarni al-Andalusga olib kelish davom etgan.

1070-yilga kelib, Pireney yarim orolidagi mayda davlatlar oʻrtasidagi oʻzaro urushlar avj olib, vaziyat yanada ogʻirlashadi. Ana shunday sharoitda al-Maʼmun 1075-yilning fevral oyida Qurtuba shahrini egallaydi. Amir shahardagi xalifa al-Hakam II kutubxonasini Toledoga koʻchirish toʻgʻrisida maxsus farmon chiqaradi. Biroq, shu yilning 1 iyul kunida oʻtkazilgan katta tantana vaqtida al-Maʼmunning zaharlab oʻldirilishi natijasida bu ish amalga oshmay qolgan. Shundan soʻng, Toledo bir tarafdin ichki nizolar, ikkinchi tarafdin esa Badaxos va Saragossa amirliklari hamda Leon va Kastiliya qirolligi oʻrtasidagi urush maydoniga aylanadi. Vaziyatdan unumli foydalana bilgan Leon va Kastiliya qiroli Alfonso VI (1069–1109) 1085-yilning 25-may kunida Toledoni musulmonlardan tortib olib, shaharda xristianlar hokimiyatini qayta tiklaydi.

Toledoda xristianlar hokimiyati oʻrnatilgan boʻlsada, shaharda musulmon madaniyati oʻzining kuchli taʼsirini saqlab qolgan edi. Misol uchun, qiroli Alfonso VI musulmonlarga xos hayot kechirgan, u Sevilya amiri al-Mutamidning (1069–1091) Saʼida ismli qiziga uylangan boʻlib, oʻz saroyida arabcha kiyimlarni kiyib yurgan va musulmon axloq-odob qoidalariga rioya qilgan. Tarixchi olimlar hatto uning saroyidagi xristian zodagonlari lotin tilidan koʻra arab tilini yaxshiroq bilganliklarini [7: 24] qayd etadilar. Qiroli oʻz davlatida diniy bagʻrikenglik siyosatini olib borib, barcha din vakillari uchun eʼtiqod erkinligi berilish toʻgʻrisida maxsus qaror chiqaradi.

Alfonso VI tomonidan oʻrta asr Yevropa tarjima markazlarining shakllanishi uchun muhim omil boʻlib xizmat qilgan ish amalga oshirilgan. Jumladan, «Crónica General de España»dagi maʼlumotlarga koʻra, qiroli Qurtuba va uning atrofidagi shaharlarga qilgan hujumlari chogʻida xalifa al-Hakam II ning yuqorida taʼrif etilgan kutubxonasida saqlangan kitoblarni oʻlja sifatida Toledoga olib keladi. Alfonso VI buyrugʻi bilan ushbu qoʻlyozma asarlarni saqlash maqsadida shaharning bosh cherkovi hovlisida maxsus bino bunyod etiladi [10: 139]. Natijada, oʻrta asrlarning eng yirik tarjima markazi – Toledo maktabining yaratilishiga asos boʻlgan cherkov kutubxonasi paydo boʻladi. Ammo

bu kutubxonaning dastlabki vaqtdagi vazifasi kitobxonlarni zaruriy adabiyotlar bilan ta'minlash emas, balki to'plangan qo'lyozma asarlarni saqlashdan iborat edi, xolos.

Toledoda jamlangan asarlarning umumiy soni to'g'risidagi aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Manbalarda umumiy fondi 400 mingdan ortiq bo'lgan, deb ta'riflanuvchi xalifa al-Hakam II kutubxonasidagi asarlarning barchasi to'liq holatda Toledo olib kelinmagan. Ibn Bashkuvol va al-Andalusiya asoslanadigan bo'lsak, al-Hakam II vafotidan keyin Qutroba xalifaligi boshqaruvini amalda o'z qo'lga olgan hojib al-Mansur (978–991) buyrug'i bilan kutubxonada saqlanayotgan qadimgi davr olimlarining falsafaga oid asarlarini katta qismi yoqib yo'q qilingan [15: 236]. *Bu orqali musulmon ulamo va zodagonlari orasidagi o'z tarafdorlari sonini yanada ko'paytirishni ko'zlagan hojib, hatto o'zi ham saroy maydonida ushbu qo'lyozmalarga o't qo'yishda shaxsan ishtirok etgan* [15: 237].

Abu Jafar al-Dabbiy esa XI asr boshlarida Qurtuba xalifaligida boshlangan ichki nizolar hamda iqtisodiy ehtiyoj sabab kitoblarning teng yarimi sotib yuborilgan [14: 196]ligini aytadi. Mazkur ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, Alfonso VI Qurtuba shahriga kelgan vaqtda saroy kutubxonasida saqlangan kitoblarning umumiy soni ikki yuz mingga yaqin bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin. O'lja sifatida ularni Toledo shahriga ko'chirish chog'ida qo'lyozmalarga turli darajada shikast etkazilishi va ayrimlarini esa umuman yo'qolishini inobatga olsak, Toledo shahri bosh cherkoviga joylashtirilgan kitoblar taxminan 100 mingga yaqinni tashkil etgan, deb ko'rsatish mumkin.

Bundan tashqari, «Crónica General de España»da qirol Alfonso VI 1085-yilda Toledoni bosib olgan chog'ida shahar kutubxonalarida saqlangan katta miqdordagi arabcha qo'lyozmalarni qo'lga kiritganligi ta'kidlanadi [13: 42]. Hoynahoy bular amir al-Ma'mun davrida yaratilgan hamda jamlangan asarlar bo'lgan.

Ma'lumotlarning taqribiy tahliliga asoslanib, XI asr oxiri – XII asr boshlarida birgina Toledo shahrining o'zida 100 mingtadan ortiq turli fanlar va mualliflarga tegishli arab tilidagi qo'lyozmalar mavjud edi, degan mulohazani ilgari surish mumkin. Albatta, hozirgi kun nuqtai-nazaridan ushbu miqdor zamonaviy davr kutubxonalari uchun ham katta ko'rsatkich hisoblanadi. Ayni holat turli shubhalarga sabab bo'lishi tabiiydir. Biroq, tarixiy xolislikni saqlagan holda, mantiqan ushbu ko'rsatkich o'n mingtadan ortiq deyilgan taqdirda ham asarlarning umumiy soni ancha salmoqli bo'lganligidan dalolat beradi.

Manbalardagi ma'lumotlarning mantiqiy xulosasi shuki, ikkinchi bosqichda musulmon Sharqi olimlarining ayrim asarlari Ray → Isfahon → Bag'dod → Damashq → Qohira → Fustot → Iskandariya → Qayruvon → Qurtuba → Toledo yo'nalishi bo'ylab Yevropaga kirib borgan. Ammo, bu bosqichda Toledoda jamlangan arab tilidagi asarlarning asosiy qismini Qurtubadan keltirilgan kitoblar tashkil etgan.

Uchinchi bosqich. XII – XIII asrlar bilan belgilanishi lozim bo'lgan mazkur bosqichda arab tilidagi asarlarni Yevropaning ichki hududlari bo'ylab tarqatish markazi Toledo shahri bo'ldi. Bu bosqichning o'ziga xos jihati shunda iboratki, ayni davrda arab tilidagi asarlarni Yevropa bo'ylab tarqalishi Pireney yarim orolida yo'lga qo'yilgan lotin tarjimachilik ishlari bilan uzviy bog'liq holda kechdi.

«Summa totius haeresis Saracenorum»da Fransiyaning Klyuniya cherkovi abbati Pyer de Montboissier 1142–1143-yillarda Kastiliya va Leon qirolligiga amalga oshirgan safari chog'ida, Toledo maktabi ta'sischi Raymondodan falsafa, islom dini va uning tarixiga oid arab tilidagi asarlarni hamda ularni lotin tiliga tarjima qilishi mumkin bo'lgan tarjimonlarni yuborishini [16: 29] so'rab maktub yo'llaganligi, ayni tarjimonlar guruhi 1142-yilda Pireney yarim orolining shimolidagi Pamplona shahrida jamlanib, tarjima ishlari bilan shug'ullanganliklari [16: 29] qayd etilgan.

«Historia arabum»da esa arxiyepiskop Raymondo Saragossada ijod qilgan Dalmatlik Hermanga arab tilidagi asarlarni ularning Toledo maktabida yaratilgan lotincha tarjimalariga qo'shib, tahrir uchun yuborgan [18: 23]ligi ta'kidlanadi. Mazkur ma'lumotlarni «Crónica General de España»dagi [10: 56] qaydlar ham tasdiqlaydi.

«De rebus Hispaniae»da Marselda ijod qilgan mashhur tarjimon Samuel ibn Tibbon (1150–1230) o'zining 1199–1213-yillarda Pireney yarim oroliga amalga oshirgan safari chog'ida Toledoda ma'lum muddat bo'lganligi hamda Toledo maktabining o'sha vaqtdagi rahbari Rodrigo Ximenes de Rada (1170–1247) topshirig'i bilan Aristotelning «Τα μετεωρολογικά» [Τα μετεωρολογικά] («Meteorologiya») asari arabcha tarjimasini hamda Ridvon al-Misriyning «Sharh kitob»ini o'zi bilan

TARIX

Marselga olib ketgan [17: 79]ligi ko'rsatilgan. Qayd etish lozimki, mazkur ikki asar 1213–1214-yillarda tarjimon tomonidan ibroniy tiliga o'g'irilgan.

Asli Britaniyadagi Norfolk grafligidan bo'lgan, mashhur astronom olim Morlilik Daniel (tax. 1140 – 1210) Toledo maktabining eng sarmahsul tarjimoni Kremonalik Jerard (1114–1187)ning do'sti va shogirdlaridan biri edi [5:223r]. Olim qalamiga mansub bo'lgan «Philosophia Magistri Danielis de Merlac» («Ustoz Morlilik Danielning falsafasi») nomli asar hozirga qadar etib kelgan bo'lib, uning muqaddima qismida Danielning to'liq tarjimai holi keltirilgan. Asar hozirgi kunda Britaniya kutubxonasi qo'lyozmalar fondidagi Arundel MS 377 raqamli to'plam tarkibida «De Naturis Superiorum et Inferiorum» («Quy va yuqori olam haqida») nomi bilan saqlangan. Unda, Daniel o'z kitobini tugallash uchun 1170-yilda Parijga borganligi biroq, u erdagi ta'lim va ilmiy muhit qoniqtirmaganligi bois, Toledoga ketganligini qayd etilgan. Asarda ayni voqelik qiziq tasvirlanib: *Parijga ilm istab borgani u erda olimlardan ko'ra, hech narsani bilmaydigan «eshaklarni» uchratgani (Cum aliquando discederem ad studendum, in urbe Parisiorum paulisper commoratus sum. Ibi magis asinos quam viros vidi, qui in sellis sedebant et se valde graves praetendebant)* aytilib, ... *bunday bilimsizlikdan zarar ko'rmasligi uchun arab tilidagi asarlar asosida tabiiy fanlarni o'rganish uchun bu ishlar rivojlangan Toledoga ketishga shoshilganligini (Cum omnia ita se habere invenissem, non volui talem stuporem contrahere.... Sed cum audissem studium Arabum, quod totum ad quadrivium spectabat, illis diebus in urbe Toletana in more esset, illuc quam celerrime potui properavi)* [4: 88r] qayd etilgan. Toledoda u Jerard bilan tanishib, ma'lum muddat hamkorlikda ijod qilishgan. Jumladan, unda arab tilidan boshlang'ich ta'lim olib, astronomiyaga oid bir qancha asarlarni lotin tiliga tarjima qildiradi. «De Naturis Superiorum et Inferiorum» matning tahlili, unda eng ko'p ishora berilgan asarlar Ahmad Farg'oni (taxm. 798–861)ning «Kitob fi usul 'ilm an-nujum», Abu Nasr Forobiy (873–950)ning asl arabcha matni saqlanmagan «Ilmlarning kelib chiqishi», Abu Mash'ar Balxiy (787–886)ning «Madhal 'ilm an-nujum» hamda Ibn Sino (980–1037) qalamiga mansub «Kitob ash-Shifo»ning tarkibi qismlari, shuningdek Aristotel (mil. avv. 384 – mil. avv. 322) asarlariga yozgan sharhlari ekanligidan dalolat bermoqda. Asarda astronomiyaga oid ma'lumotlar to'liq holatda Farg'oni kitobining Sevilyalik Xuan (1090–1150) tomonidan lotinchaga o'g'irilib, Jerard tarafidan takomillashtirilgan «De rudimenta astronomica» («Astronomiya asoslari haqida») nomli tarjimasidan [4: 91r-95v] ko'chirilgan. Astronomiyani tarkibiy qismlarga ajratish chog'ida olim Forobiyning ilmlar tasnifi aynan [4: 101v] takrorlaydi. Asar matnida Albumaser (Abu Mash'ar Balxiy) ismi 20 maroraba takrorlanib, astrologiyaga doir jarayonlarini tavsiflashda balxlik olim asarining «Maius Introductorium in Astronmiam» («Astronomiyaga kirish bosh kitobi») nomli lotincha tarjimasiga asoslanilgan. Ayni jihatlar olimni Toledo maktabi tarjimonlari Batlik Adelard, Dalmatlik Herman, Sevilyalik Xuan va albatta Kremonlik Jerard tarjimalaridan foydalanganligi anglatadi.

«De Naturis Superiorum et Inferiorum»ning muqaddimasi so'nggida olim o'z vataniga 1184-yilda qaytishga majbur bo'lganligi, buni sababi Toledoga kelish uchun olgan qarzlarni to'lash vaqti kelganligi bilan izohlanib, qaytishda o'zi bilan ko'p sonli arabcha asarlar va ularning lotincha tarjimalarini Oksford va keyinchalik ona shahri Norvichga olib ketganligi [4: 89r] yozilgan. Olim ularning eng nodiri sifatida «De rudimenta astronomica», «Maius Introductorium in Astronmiam», «De ortu scientiarum»larni sanaydi. Bundan anglash mumkinki, XII asrning o'zidayoq Farg'oni, Balxiy va Forobiy kabi markaziy osiyolik allomalarning asarlari uzoq Britaniyagacha etib borgan. Keltirilgan ma'lumotlar, Morlilik Daniel faoliyati va ilmiy merosi yurtimiz fan tarixi nuqtai nazaridan ham maxsus tadqiqotga loyiq ekanligini ko'rsatmoqda.

Salimbene de Adam «Cronica»sida Toledo maktabi *a'zosi Maykl Skotni imperator* [Fridrix II (1220 – 1250)] *taklifiga binoan 1227-yilda Palermoga ko'chib o'tish chog'ida o'zi bilan* [1220-yilda] *Toledodan olib kelgan 30 ga yaqin arab tilidagi asarlarni Sitsiliyaga keltirganligini* yozadi. Manbada bu asarlar sanab o'tilmagan bo'lsada, ayni ma'lumot arab tilidagi asarlarni Yevropaning turli hududlari bo'ylab tarqalishida tarjimonlarining o'zlari ham muhim rol o'ynaganligidan dalolat beradi.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili Toledo shahrida XI asrda jamlangan arab tilidagi asarlar XII – XIII asrlarda Pireney yarim orolining shimoliy hududlaridagi shaharlarga, ular orqali esa janubiy Fransiya, Italiyaga, u orqali Sitsiliyaga kirib borganligi anglatadi. Bundan tashqari, ayni davrda Markaziy Osiyo olimlarining asarlari Britaniyaga etib borgan. Ushbu jarayon shaharlar kesimida Toledo → Pamplona → Saragossa → Marsel → Palermo hamda Toledo → Oksford → Norvich yo'nalishlarida Yevropaning ichki hududida yuz bergan. Avvalgi ikki bosqichdan farqli ravishda bu davrda arab tilidagi asarlarni musulmon Sharqi davlatlaridan olib kelinishi kuzatilmaydi.

XULOSA

Mavzuga oid arab va lotin tilli manbalardagi ma'lumotlarning qiyosiy tahlil natijasi quyidagicha:

- musulmon Sharqi olimlari asarlarining o'rta asrlarda Yevropa bo'ylab tarqalish yo'nalishining dastlabki, ya'ni al-Andalus yo'nalishini **birinchi bosqich**da arab tilidagi asarlar Bag'dod → Damashq → Qohira → Iskandariya → Qurtuba → Barselona → Avriyak → Rim yo'nalishi bo'ylab mazkur mintaqaga kirib borgan. Biroq, bu bosqichda arab tilidagi asarlarning asosiy qismi musulmon G'arbi hisoblangan al-Andalusda, shu jumladan, Qurtuba shahrida jamlangan edi;

- **ikkinchi bosqich**da musulmon Sharqi olimlarining ayrim asarlari Ray → Isfahon → Bag'dod → Damashq → Qohira → Fustot → Iskandariya → Qayruvon → Qurtuba → Toledo yo'nalishi bo'ylab Yevropaga kirib borgan. Ammo, bu bosqichda Toledoda jamlangan arab tilidagi asarlarning asosiy qismini Qurtubadan keltirilgan kitoblarni tashkil etgan;

XII – XIII asrlarni o'z ichiga olgan **uchinchi bosqich**da Toledo → Pamplona → Saragossa → Marsel → Palermo kabi shaharlar kesimida Toledo shahrida XI asrda jamlangan arab tilidagi asarlar Pireney yarim orolining shimoliy hududlaridagi shaharlarga, ular orqali esa janubiy Fransiya, Italiyaga, u orqali Sitsiliyaga kirib borgan. Shuningdek, ayni bosqichda arab tilli asarlar "migratsiyasi" Toledo → Oksford → Norvich yo'nalishida ham yuz bergan.

Pireney yarim orolida yuz bergan jarayonlarga parallel ravishda musulmonlar tomonidan zabt etilgan va ma'lum muddat ularning ta'sir doirasida bo'lgan Sitsiliya oroli orqali Italiyaning materik hududlari u orqali esa Yevropaning ichki qismlariga arab tilidagi ilmiy meros namunalari kirib borgan edi. Ayni holat, keyinchalik xristianlar hokimiyati qayta tiklangach, hududning ayrim markaziy shaharlarida tarjima maskanlarini shakllanishiga asos bo'ldi. Shu sababdan, musulmonlar tomonidan Siqiliya deb atalgan mazkur hudud arab tilidagi asarlarning Yevropa bo'ylab tarqalishida **ikkinchi geografik yo'nalish** markazi hisoblanadi. Biz, ayni geografik yo'nalish xususida o'zimizning navbatdagi ishlarimizda batafsil to'xtalamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Algoarizmi Mahumed. Ezich elkauresmi. / tr. Adeldus Bathensis. – MS. Auct. F. 1. 9. || Bodleian Library, Oxford, UK.
2. Algoarizmi Mahumed. Ezich elkauresmi. / tr. Adeldus Bathensis. – MS. Savile 22. || Bodleian Library, Oxford, UK.
3. Corpus Islamlatinum. – MS. 1162 || Bibliothèque de l'Arsenal, Paris, France.
4. Merlac D. d. De Naturis Superiorum et Inferiorum. – Arundel MS 377 fols. 88r-103v. || British Library, London, UK.
5. Vita, Commemoratio librorum. –Lat. 14390 s. xiv, fols 223r-v. || Paris, Bibliothèque nationale de France, France.
6. Abbr Ibn. Complementum Libri as-Sila. / Ed. F.Codera-Zaidín. / Biblioteca arabico-hispana. – Tomos 6–7. – Caesaraugustae: Typographia Fratrum Comas, 1888–1889. – 1489 p. (Vol. 1 – 593 p.; Vol. 2 – 896 p.).
7. *Andalusī Šā'id ibn Aḥmad. Historia de la filosofía y de las ciencias o Libro de las categorías de las naciones (Kitāb Ṭabaqāt al-'Umam) / Eds. E.L.Ruiz, A.M.Lorca. – Madrid: D.L. Trotta, 2000. – 426 p.*
8. Alfonso el Sabio. Antología de las obras: Cantigas de Santa Maria., Prologo., Cantigas profanas., Las siete partidas., Libros de astronomia., Libros de ajedrez, dados y tablas., Una carta y dos testamentos., Primera cronica general., General e grand estoria., El lapidario. / Prologo, seleccion y glosarios de A.G.Solalinde., / Edición de J.Fraud. – Madrid, 1922.
9. Alfonso X el Sabio. General estoria. Primera parte. Tomo I y II / Edición de P.Sánchez-Prieto. – Madrid: Fundación José Antonio de Castro, 2009. – 1590 p.
10. Alfonso X el Sabio. General estoria. Secunda parte. Tomo I y II / Edición de B.A.Cabrejas. – Madrid: Fundación José Antonio de Castro, 2009. – 1747 p.
11. Alfonso X el Sabio. General estoria. Tercera parte. Tomo I y II / Edición de P.Sánchez-Prieto. – Madrid: Fundación José Antonio de Castro, 2009. – 1376 p.
12. Alfonso X el Sabio. General estoria. Cuarta parte. Tomo I y II / Edición de I.F.Ordóñez y R.Orellana. – Madrid: Fundación José Antonio de Castro, 2009. – 1294 p.
13. Alfonso X el Sabio. General estoria. Quinta y Sexta parte. Tomo I y II / Edición de E.Trujillo, B.Almeida y P.Sánchez-Prieto. – Madrid: Fundación José Antonio de Castro, 2009. – 1238 p.
14. Dabb. Ahmad ibn Yahy. Bughyat al-multamis fi tārikh rijāl ahl al-Andalus. / Ed. F.Codera-Zaidín, J.Ribera. / Biblioteca arabico-hispana. – Tomo 3. – Caesaraugustae: Typographia Fratrum Comas, 1884. – 672 p.
15. Ibn Baškuwāl. Aṣ-ṣila fi ta'rīḥ a'immat al-Andalus. / Ed. F.Codera-Zaidín. / Biblioteca arabico-hispana. – Tomo 2. – Mağrit: Rūḥas, 1882. – 796 p.
16. Petrus Venerabilis. Summa totius haeresis Saracenorum. / In Peter the Venerable and Islam / Ed by J.A.Kritzeck. – Princeton: Princeton University Press, 1964. – P. 115–293.
17. Rada de J.R. Historia de los hechos de España. / Introd., traduc., notas de J.F.Valverde. – Madrid: Alianza editorial, 1989. – 457 p.

TARIX

18. Rada de J.R. Historia arabum. / Publicaciones de la Universidad de Sevilla: Serie Filosofía y letras. – Sevilla: Salesiana, 1974. – 92 p.
19. Codera-Zaidín F. Biblioteca arabico-hispana. 10 tomos. – Caesaraugustae: Typographia Fratrum Comas, 1882–1895.
20. Codera-Zaidín F. Estudios críticos de Historia árabe Española. – Madrid : Imprenta Ibérica E. Maestre, 1917. – 457 p.
21. Codera-Zaidín F. Decadencia y Desaparición de los Almorávides en España. Pamplona: Urgoiti Editores, 2004. – 221 p. (Reimpresión).
22. Dozy R. Histoire des Musulmans d'Espagne: jusqu'à la conquete de l'Andalousie par les Almoravides (711-1110). – 4 vols. – Leyde: Brill, 1861. Vol. 1 – 406 p., Vol. 2 – 366 p., Vol. 3 – 384 p., Vol. 4 – 348 p.
23. Mahmudov O.V. O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tarixiga oid arab tilidagi manbalar hamda ularning lotin tilli manbalar bilan qiyosiy tahlili. // «FarDU ilmiy xabarlari» ilmiy jurnali. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2022. – № 6. – B. 47-52 (– 554 b.).
24. Mahmudov O.V. Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari (I bosqich: Bag'dod → Qurtuba → Rim). «Sharqshunoslik | Востоковедение | Oriental Studies» ilmiy jurnali. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universitet, 2025. – № 3. – B. 69-82 (– 127 b.).
25. Watt W.M. The influence of Islam on medieval Europe. (Islamic Surveys 9). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1972. – 128 p.
26. Watt W.M., Cachia P. A History of Islamic Spain. (The new Edinburgh Islamic Surveys). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1996. – 216 p.
27. Бартольд В.В. Сочинения. – Том 6: Работы по истории ислама и Арабского халифата. – Москва: Издательство восточной литературы, 1966. – 770 с.
28. Крачковский И.Ю. Арабская культура в Испании. – Москва: Изд. АН СССР, 1937. – 31 с.
29. Леви-Провансаль Э. Арабская культура в Испании. – Москва: Наука, 1967. – 96 с.
30. Мюллер А. История Ислама. – Т. 4. – Санкт-Петербург: Издание Л.Ф.Пантелеева, 1896. – 281 с.